

# Uzbekistan Airways Rigaga parvozlari sonini oshirmoqda

**2021 3 Noyabr**

«Uzbekistan Airways» AJ 2021-yil 12-noyabrdan boshlab Rigaga aviaqatnovlar sonini oshirmoqda. Endilikda, Toshkent-Riga-Toshkent yoʻnalishi boʻyicha aviaparvozlari haftasiga ikki marotaba — dushanba va juma kunlari amalga oshiriladi.

Ushbu kunlardagi aviaparvozlari quyidagi harakat jadvali boʻyicha amalga oshiriladi (mahalliy vaqt):

- Toshkentdan joʻnab ketish: 09:30
- Rigaga kelish: 12:00
- Rigadan joʻnab ketish: 15:00
- Toshkentga kelish: 23:00

Mazkur yoʻnalish boʻyicha aviachiptalar narxi bir tomonga 2 425 539 soʻmdan (bagajsiz) va 2 798 698 soʻmdan (bagaj bilan), shuningdek, borish va qaytish boʻyicha aviachiptalar 3 930 368 soʻmdan (bagajsiz) va 4 477 669 soʻmdan (bagaj bilan) boshlanadi.

Yoʻlovchilarga Rigadan Yevropaning Varshava, Vilnyus, Tallin, Xelsinki, Stokgolm va boshqa shaharlariga tutashgan aviaqatnovlar mavjudligi haqida eslatib oʻtamiz.

Aviachiptalarni aviakompaniyaning rasmiy saytidan, Uzbekistan Airways Sales filialidan yoki aviakompaniya agentlaridan xarid qilish mumkin. Eslatib oʻtamiz, aviakompaniyaning rasmiy sayti orqali aviachipta xarid qilib olayotganda 3 foizli chegirma taqdim etiladi.

Telegram: [t.me/uzbekistanairways](https://t.me/uzbekistanairways)